

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

RAIMOVA DURDONA DURDIBAY QIZI

**AVTOMOBIL TRANSPORTI SOHASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIKNING IJTIMOIIY IQTISODIY SAMARADORLIGINI
OSHIRISH (QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

	Kirish	
I BOB	AVTOTRANSPORT SOHASIDA KICHIK BIZNES KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	
1.1.	Avtotransport sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari	
1.2.	Avtotransport sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini moliyalashtirish masalalari	
1.3.	Avtotransport sohasini rivojlantirish va uni qo'llab-quvvatlash bo'yicha xorijiy tajribalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari	
	1-bob bo'yicha xulosalar	
II BOB	INNOVASION IQTISODIYOT SHAROITLARIDA AVTOMOBIL TRANSPORTI XIZMATLARINI KO'RSATISHNING JORIY HOLATI TAHLILI	
2.1.	Qoraqalpog'iston Respublikasida asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularda avtotransport sohasining ulushi tahlili	
2.2.	Mintaqaviy avtotransport sohasida xususiy tadbirkorlik rivojlanishi samaradorligini sotsiologik so'rovnoma asosida baholash	
2.3.	Mintaqaviy avtotransport sohasida kichik biznes korxonalarini barqaror rivojlantirish shart-sharoitlari va omillari	
2.4.	Mintaqa transport xizmatlari sohasida logistik autsorsing tizimini joriy qilish mexanizmini ishlab chiqish	
	2-bob bo'yicha xulosalar	
III BOB	MINTAQAVIY AVTOTRANSPORT SOHASIDA KICHIK KORXONALAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	
3.1.	Transport sohasini rivojlantirishda davlat va kichik biznesning o'zaro hamkorligini amalga oshirish istiqbollari	
3.2.	Qoraqalpog'iston Respublikasida transport xizmatlarini ko'rsatishda kichik biznesni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari	
3.3.	Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik korxonalar tomonidan ko'rsatilgan avtotransport xizmatlarining istiqbolli ko'rsatkichlari	
	3-bob bo'yicha xulosalar	
	Xulosa	
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	
	Ilovalar	

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. so'nggi o'n yilliklarda jahon iqtisodiyotida ro'y bergan turli jarayonlar avtomobil transporti sohasiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Globalizatsiya, texnologik yangilanishlar, ekologik talablar va iqtisodiy o'zgarishlar avtomobil transportini yangilanish va moslashish zaruratini keltirib chiqardi. Bu sohadagi transformatsiyalar, ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi orqali amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda, transport sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining faol ishtiroki sohaning yanada raqobatbardosh, innovatsion va samarali bo'lishiga xizmat qilmoqda. Xususiy sektorning ishtiroki avtomobil transporti sohasida yangiliklar, xizmatlar sifatini oshirish va foydalanuvchilarga yaxshiroq xizmat ko'rsatishni ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.

Transport sohasida bu o'zgarishlar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ekologik xavfsizlikni ta'minlash, energiya tejamkorligini oshirish va shaharlararo va shahar ichidagi harakatni tartibga solish uchun ham zarur. Masalan, elektr transport vositalarining rivojlanishi va ekologik toza transport imkoniyatlarining ko'payishi — bu kichik biznesning va xususiy tadbirkorlarning qatnashishi orqali amalga oshiriladigan o'zgarishlardan biridir.

Shuningdek, avtomobil transporti sohasidagi yangi tashkiliy shakllar, xususan, transport xizmatlarini raqamli platformalar orqali taqdim etish, mijozlar bilan bevosita aloqalar o'rnatish, "car-sharing" yoki "ride-hailing" kabi innovatsion xizmatlar, soha faoliyatini yangi bosqichga olib chiqdi. Bu jarayonlar transportni yanada qulay, samarali va shahar infratuzilmasiga moslashtirilgan shaklga keltirishga xizmat qilmoqda.

Shu bois, transport sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning keng miqyosda ishtiroki iqtisodiy o'sish, ijtimoiy rivojlanish va ekologik barqarorlikka erishishda muhim omil bo'lib qoladi.

Transport sektorida raqobatning tobora kuchaya borishi bilan avtotransport korxonalari yangi texnologiyalar hamda tashkiliy shakllarni qo'llashlari va bozorda o'z pozitsiyalarini saqlab qolib, ularni mustahkamlashlari uchun o'zlari

ko'rsatadigan transport xizmatlari sifatini yaxshilab borishlari zarur bo'ladi. Bunda kichik biznesga mansub bo'lgan avtotransport korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish strategiyasini ishlab chiqish va uni joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi.¹ Transport sohasi inson resurslari va tovarlarning bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi bilan shug'ullanuvchi iqtisodiyotning muhim sanoat tarmog'idir. Tovarlar, xom-ashyo va ishchi kuchini manziliga yetkazib berish istalgan mamlakat iqtisodiyotida katta ahamiyatga egadir.

Dunyo mamlakatlarida yaqin davrlarda bo'lib o'tgan Covid-19 pandemiyasidan keyin iqtisodiyotning, jumladan, transport sohasining ham tiklanishi birmuncha murakkabliklarga duch keldi. Misol uchun 2021 yil yakunlariga ko'ra jahon yuk transporti bozorining o'sishi koronavirus pandemiyasi avj olgan 2020 yilga nisbatan 8,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilda endilikda 1,84 trln AQSH dollarini tashkil etdi. Yana bir yildan so'ng esa 2023 yil yakunlariga ko'ra dunyo bozorining mazkur sektori hajmi 2,0 trln AQSH dollaridan ham oshib ketdi va bashoratlarga ko'ra bu bozor (GAGR bo'yicha) 2027 yilga borib yana 8,1 % ga o'sishi kutilmoqda.² Bundan tashqari, transport sohasini rivojlantirish strategiyalarining qo'llanilishi bo'yicha xalqaro tajribalarga murojaat qiladigan bo'lsak, u holda Deutsche Post DHL Group nemis xalqaro yuk tashish kompaniyasining uzoq muddatli strategiyasini amalga oshirish tajribasi diqqatga sazovordir.³

Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida avtotransport sohasida kichik kichik biznes korxonalari faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish borasida keng ko'lamda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda, bunda so'nggi vaqtlarda asosiy trendga aylanib ulgurgan raqamlashtirish, yashil iqtisodiyot, yashil energetika tamoyillari negizida resurs va energiya tejamkorligiga katta e'tibor beriladigan ishlab chiqarish⁴ jarayonlarini tashkil etishga harakat qilinmoqda.⁵ Shu bilan birgalikda

¹https://rgsbm.uz/upl_oads/docs/55288f7fd1_caf46a97455e5e34fd15_c8.pdf.

²<https://stfalcon.com/ru/blog/post/transportation-industry-trends>.

³Инвестиции в цифровизацию. Официальный сайт немецкой международной компании по доставке Deutsche Post DHL Group. – [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://www.dpdhl.com/en.html> (дата обращения: 11.04.2024)

⁴Реформирование транспортной фирмы на основе логистического аутсорсинга : автореферат дис. ... кандидата экономических наук : 08.00.05 – Новохацкая, Татьяна Александровна – Система онлайн-просмотра

⁵Проблемы финансирования транспортных предприятий малого бизнеса - <https://spravochnik.ru/file/scientific-article>.

aholiga transport xizmatlari ko'rsatish tizimini boshqarish mexanizmining samarali va ta'sirchan metodlarini ishlab chiqish, avtotransport sohasini boshqarishning zamonaviy usullarini yaratish va boshqa shu kabi yo'nalishlarda bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonning avtotransport sohasi so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanib, tizimning intensiv o'sishi natijasida mamlakatdagi avtotransport parki yangilanmoqda, yangi marshrutlar ochilmoqda va yo'lovchi hamda yuk tashish hajmi doimiy ravishda ortib bormoqda.⁶ Bu jarayon, bir tomondan, avtotransport korxonalari imkoniyatlarini kengaytirsa, ikkinchi tomondan, ular taqdim etadigan xizmatlar sifatiga bo'lgan talabni oshirishni talab qilmoqda. Shu bilan birga, kichik avtotransport korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun samarali strategiyani ishlab chiqish zarurati yuzaga kelgan. Shunday qilib, avtotransport sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning samaradorligini oshirish bo'yicha strategiyani ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish zarurligi oydinlashmoqda.⁷ Bu maqsadga erishish uchun soha jarayonlarini chuqur o'rganish va tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega.⁸ Yuqorida ta'kidlanganlarga asoslanib, mamlakat miqyosida avtotransport xizmatlarini boshqarish tizimini qayta ko'rib chiqish zarurati tug'ilmoqda. Bu jarayon kichik avtotransport korxonalari faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish strategiyasini ishlab chiqishda zamonaviy mexanizmlarni joriy etishni, shuningdek, aholiga ko'rsatilayotgan avtotransport xizmatlarining sifatini yaxshilashni taqozo etmoqda.⁹ Ushbu masalalar, O'zbekiston Respublikasini 2030 yilgacha¹⁰ rivojlantirish Konsepsiyasida¹¹ va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 29 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida ham alohida ko'rib chiqilgan. Farmonda, shuningdek, "Barcha transport turlarini bir-biriga bog'lab,

⁶ [СтГАУ, Ставропольский государственный аграрный университет, г. Ставрополь - специальности и статистика приема](#)

⁷ [ГАРАНТ](#)

⁸ <http://vak.ed.gov.ru/announcements/economich/GabdualievaRS.doc>.

⁹ [ГАРАНТ](#)

¹⁰ [Dissertatsiya](#)

¹¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 29 январдаги "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сонли Фармони - <https://lex.uz/docs/5841063>.

yagona transport tizimini rivojlantirish, yirik shaharlar o'rtasida kunlik qatnovlarni tashkil etish, manzilga yetib borish va qaytib kelish imkoniyatini yaratish" kabi maqsadlar belgilangan.¹²

Amalga oshirilgan dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi avtomobil sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4397-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 oktyabrdagi "Yo'l xo'jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ№330-sonli Qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi yo'lida ma'lum bir darajada xizmat qiladi.¹³

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiyaning tadqiqoti respublika fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi I. "Demokratik va huquqiy davlatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish"ga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Transport sohasidagi korxonalar faoliyatining o'ziga xos jihatlari va ularning mulkchilik shakllarini tadqiq qilishning nazariy asoslari B.D.Къyara, D.N.Bifulko, P.R.Krugman, M.Obstfeld, M.J.Melis, A.Ansar, B.Flaybing, A.Budzer, D.Lann, J.Szyu Liang, J.Eliasson, M.Boryesson, M.Lundberg, J.A.Annema, K.Frenken, S.Kopmans, M.Krosen, Ch.Torsen, I.Torsen, J.Leyrd, S.Nesh, P.Mekki, Ch.Jons, F.Moura, T.Domingos¹⁴ va boshqa shu kabi ko'plab xorijiy mualliflarning tadqiqot ishlarida o'rganilgan.

¹²Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 29 январдаги "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сонли Фармони - <https://lex.uz/docs/5841063>.

¹³ [Opportunities for the development of ecotourism in the Fergana valley - ISBN: 978-5-4365-8519-2 - BOOK.ru](https://www.itamain.com/books3.php)

¹⁴Бруно Далла Къяра, Дженнаро Никола Бифулько и др. Научные и практические аспекты транспортной отрасли – Международная академия транспорта, Москва, Гоголевский бульвар, 33/1, <http://www.itamain.com/books3.php>; Krugman P.R., Obstfeld M., Melitz M.J. International economics: theory & policy. Harlow: Pearson Education, 2012.731 p; Ansar A., Flyvbjerg B., Budzier A., Lunn D. Does infrastructure investment lead to economic growth or economic fragility? Evidence from China.Oxford Review of Economic Policy, 2016, vol. 32, issue 3, pp. 360-390.; Xueliang Z. Has transport infrastructure promoted regional economic growth? With an analysis of the spatial spillover effects of transport infrastructure. Social Sciences in China, 2013, vol. 34(2), pp. 24-47.; Eliasson J. International Comparison of Transport Appraisal Practice. Sweden country report. University of Leeds, UK, 2013. 12p; Borjesson M., Eliasson J., Lundberg M. Is CBA Ranking of Transport Investments Robust? Journal of Transport Economics and Policy, 2014, vol. 48, part 2, pp. 189-204.; Annema J.A.,

Shuningdek, transport korxonalarining iqtisodiy faoliyatini boshqarish va bunda mazkur korxonalar faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari Yu.A.Shcherbanin, Yu.N.Golskaya, I.A.Kuznesova, N.Yu.Sandakova, A.B.Bardal, E.I.Pozamantir, V.Doyenin, G. G. Raxmatulina, V.A. Andreyev, S.A. Semin¹⁵ hamda shu kabi MDH davlatlarining bir qator tadqiqotchi-olimlari tomonidan atroflicha ko‘rib chiqilgan.

O‘zbekistonda kichik biznes sohasi rivojlanishining turli masalalari Agzamxo‘jayev S.S., Alimov A.M., Alimov U., Ambursumyan A.A., Valijonova U.R., Muftaydinov Q., Rasulmammedov A.D., Rustamova I.B., Salayev S.K., Trostyanskiy D.V., Tursunov I.E., Xolmatova Sh.R., Xudoyarov A.A., Ergasheva E.M., G‘afurov U.V. va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o‘rganilgan.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Maxkamova M.A., Salimov B.T., Muradov B.A., Samatov G.A., G.J.Allayeva N.M.Ziyavitdinova, Z.A.Baltasheva, Umarov I.Y., Abdullayev A.J. va boshqalarning ilmiy ishlarida sanoati korxonalarini barqaror rivojlantirish va iqtisodiy samaradorligini ta‘minlash masalalarining turli jihatlarini tadqiq qilingan. Biroq, ushbu tadqiqotlarda avtotransport sohasidagi kichik biznes korxonalari faoliyat samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslari yetarli darajada o‘rganilmagan.

Frenken K., Koopmans C., Kroesen M. Relating cost-benefit analysis results with transport project decisions in the Netherlands. *Letters in Spatial and Resource Sciences*, 2017, vol. 10, issue 1, pp. 109-127; Thorsen H., Thorsen I. Effects of transportation barriers on geographic asymmetries in labour markets. *Research in Transportation Economics*, 2017, vol. 63, pp. 27-37; Laird J., Nash C., Mackie P. Transformational transport infrastructure: cost benefit analysis challenges. *Town Planning Review*, 2014, vol. 85, issue 6, pp. 709-730.; Jones H., Moura F., Domingos T. Transport Infrastructure Project Evaluation Using Cost-benefit Analysis. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 2014, vol. 111, pp. 400-409; Lakshmanan T. R. The broader economic consequences of transport infrastructure investments. *Journal of Transport Geography*, 2011, vol. 19, issue 1, pp. 1-1.

¹⁵Щербанин Ю.А. Транспорт и экономический рост: взаимосвязь и влияние // Евразийская экономическая интеграция. 2011. № 3(12). С. 65-78; Гольская Ю.Н., Кузнецова И.А. Оценка влияния транспорта на социально-экономическое развитие регионов // Известия Иркутской государственной экономической академии. 2010. № 5. С. 61-65; Сандакова Н.Ю. Исследование факторов, влияющих на развитие транспортной инфраструктуры региона // Инфраструктурные отрасли экономики: проблемы и перспективы развития. 2014. № 6. С. 21-26; Бардаль А.Б. Транспортный комплекс Дальнего Востока: тенденции развития и роль в экономике // Экономические и социальные перемены: факты, тенденции, прогноз. 2018. Т. 11. № 2. С. 24-36. DOI: 10.15838/esc.2018.2.56.2; Позамантир Э.И. Вычислимое общее равновесие экономики и транспорта (Транспорт в динамическом межотраслевом балансе). М.: ПОЛИПРИНТ СЕРВИС, 2014. 160 с.; В. Доенин: Интеллектуальные транспортные потоки – Москва, 2007; Г. Г. Рахматулина. Основные проблемы и перспективы интеграционного сотрудничества государств СНГ в области транспорта, 2009 - <https://cyberleninka.ru/article/>; В.А. Андреев. - Перспективы и этапы формирования единого транспортного пространства в ЕАЭС и СНГ - <https://cyberleninka.ru/article/n/>; С.А. Семин – Совершенствование транспортного сотрудничества в СНГ. – <https://cyberleninka.ru/article>.

Hozirgi vaqtda mintaqalarning transport tizimini raqamlashtirish va innovasion texnologiyalarni qo'llash asosida rivojlantirish, bu jarayon samaradorligining o'sishi, avtotransport tizimida boshqaruvning innovasion metodlarini va bunda xususan autsorsing usulidan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar¹⁶ hali yetarlicha keng tarqalmaganidir. Qoraqalpog'iston Respublikasidagi avtotransport kichik korxonalari faoliyatining natijalari tahlili ko'rsatadiki, avtotransport xizmatlarini ko'rsatish sohasida kichik biznes sub'yektlarining imkoniyatlari va salohiyatidan foydalanish imkoniyatlari to'la ishga solinmagan, jumladan, bu sohada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining salohiyati¹⁷ yetarlicha to'liq o'rganilmagan va undan foydalanish mexanizmi ham ishlab chiqilmagan. Mazkur dalil ko'rib chiqilgan korxonalarining mintaqada avtotransport xizmatlari sifatini oshirish bo'yicha kichik biznes sub'yektlarining harakatlarini faollashtirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilishi zarurati haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Hisoblaymizki, buni mustaqil tadqiqotning ob'yekti sifatida qabul qilish lozimmaqsadga muvofiqdir. Aynan mana shu jihatlar mazkur dissertatsiya ishi mavzusining tanlab olinishiga xizmat qildi va uning dolzarbligini belgilab berdi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi transport vazirligining ehtiyojlaridan, shuningdek, Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat transport universitetining - Erasmus+ doirasidagi "Markaziy Osiyoda bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash uchun sharoit yaratish orqali talabalar o'rtasida innovatsion yondashuvlar va tadbirkorlik ko'nikmalarini rag'batlantirish - TRIGGER (KA2-innovatsion hamkorlik va ilg'or tajribalar almashinuvi-oliy ta'limda salohiyatni oshirish EAC/A02/2019)" mavzusidagi qo'shma loyihasi doirasidagi xalqaro granti loyihasi asosida bajarilgan.

¹⁶Логистика пассажирских перевозок/Дипломная работа, <http://www.rosdiplom.ru/library/prosmotr.aspx?d=497656>.

¹⁷https://open.mgimo.ru/xmlui/bitstream/handle/123456789/19/Gracheva_OA.pdf.

Tadqiqotning maqsadi Qoraqalpog‘iston Respublikasi avtomobil transporti sohasidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

mintaqaviy avtotransport sohasida kichik biznes korxonalarini barqaror rivojlantirish shart-sharoitlari va omillarini o‘rganib chiqish;

transport sohasidagi kichik biznes sub’yektlarini moliyalashtirish muammolari va ularni hal qilish yo‘llarini belgilash;

avtotransport sohasini rivojlantirish va uni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xorijiy tajribalar va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rib chiqish;

avtomobil transportida kichik biznesning rivojlanish tendensiyalari va sohaga investisiyalarni jalb qilish xususiyatlarini begilash;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi avtotransport sohasida kichik biznes sub’yektlari faoliyatining rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlilini amalga oshirish;

mintaqaviy avtotransport sohasida xususiy tadbirkorlik rivojlanishi samaradorligini sosiologik so‘rovnoma asosida baholab chiqish;

transport sohasini rivojlantirishda davlat va kichik biznesning o‘zaro hamkorligini amalga oshirish istiqbollarini belgilash;

Qoraqalpog‘iston Respblikasi avtomobil transporti sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy iqtisodiy samaradorligini oshirish strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar va takliflarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qoraqalpog‘iston Respublikasining kichik avtotransport korxonalari faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmeti sifatida Avtomobil transporti sohasidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari tanlab olingan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida mantiqiy modellashtirish, ilmiy va mantiqiy fikrlash, ekspert baholash, statistik va taqqoslash tahlili, hamda tizimli yondashuv kabi usullar qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “avtotransport xizmatlari sohasida kichik biznesni rivojlantirish” tushunchasining iqtisodiy mazmuni davlat xususiy sheriklikning eksternalistik samarasi asosida kichik avtokorxonalarni outsorsing xizmatlarini ko‘rsatish tizimiga o‘tkazilishini asoslash orqali takomillashtirilgan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi avtomobil transporti sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik orqali avtotransport xizmatlari ko‘rsatishni outsorsingga o‘tkazish bosqichlarini samarali amalga oshirilishini ta‘minlashda logistik outsorsing markazi tuzilmasini tashkil etish taklifi asoslangan;

mintaqada kichik biznes sub’yektlari tomonidan ko‘rsatilayotgan transport xizmatlari hajmiga iqtisodiyot tarmoqlari ta‘sirini baholashda transport sohasidagi kichik korxonaning harakatlanuvchi tarkibi (yengil va o‘rta yuk avtomobillari, mikroavtobuslar va h.k.) va kerakli uskuna hamda jihozlarni (ta‘mirlash va diagnostikalash qurilmalari, yoqilg‘i-moylash uskunalari kabi) sotib olish jarayonlarini optimallashtirish taklifi asoslangan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi avtomobil transporti sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini iqtisodiy-matematik modellashtirish asosida 2028 yilga qadar kichik korxonalar tomonidan ko‘rsatiladigan avtotransport xizmatlari hajmining prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mintaqadagi avtotransport xizmatlari sohasida kichik biznes korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini faollashtirishning ahamiyati va tutgan o‘rni belgilangan;

mintaqadagi avtotransport sohasida kichik biznes sub’yektlarining barqaror rivojlantirish shart-sharoitlari va omillari belgilab berilgan;

transport sohasida kichik biznes sub'yektlarini moliyalashtirishdagi muammolar va ularni hal etish usullari taqdim etilgan; avtotransport sohasidagi kichik biznesning rivojlanish tendensiyalari va investitsiyalarni jalb qilish jarayonlari tahlil qilingan, shuningdek, davlat va kichik biznes o'rtasida hamkorlikni amalga oshirish istiqbollari aniqlangan;

avtotransport sohasini rivojlantirishda outsorsing usulini qo'llash asoslab berilgan va logistik outsorsing markazi faoliyatini tashkil etish mexanizmi ishlab chiqilgan;

avtotransport xizmatlari hajmiga iqtisodiyot tarmoqlari ta'sirini baholash modellari ishlab chiqilgan;

iqtisodiy-matematik modellashtirish metodi asosida Qoraqalpog'iston Respublikasida 2028 yilgacha bo'lgan davrda kichik korxonalar tomonidan ko'rsatilgan avtotransport xizmatlarini prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuvlar va metodlar rasmiy manbalarga, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi ma'lumotlariga asoslanadi. Tadqiqotlar zamonaviy metodlarga tayanib amalga oshirilgan bo'lib, uning natijalari amaliyotda sinovdan o'tkazilib, tavsiyalar va takliflar sifatida taqdim etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda taklif etilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasidagi kichik avtotransport korxonalarining barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va ularning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini ta'minlashga qaratilgan.

Dissertatsion tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, Qoraqalpog'iston Respublikasidagi avtotransport xo'jaligi sohasida xo'jalik yurituvchi sub'yektlar foydalanishlari uchun mo'ljallanadi, oliy maktab uchun o'quv materiallarini tayyorlash uchun foydalanilishi va kelgusi tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy takliflar asosida avtotransport sohasini amaliyotiga:

uslubiy yondashuvga ko'ra "avtotransport xizmatlari sohasida kichik biznesni rivojlantirish" tushunchasining iqtisodiy mazmuni davlat xususiy sheriklikning eksternalistik samarasi asosida kichik avtokorxonalarni outsorsing xizmatlarini ko'rsatish tizimiga o'tkazilishini asoslash orqali takomillashtirishga oid nazariy – uslubiy ishlanmalardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Transport iqtisodiyoti" o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Tashkent

davlat transport universiteti kengashning 2024 yil, 28 oktabrdagi 292-U-sonli bayonnomasi, №5-292-458). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etish natijasida talabalarda avtotransport xizmatlari sohasida kichik biznesni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari (tashkiliy, texnik) va tamoyillarini, xalqaro talablar va qoidalarni hisobga oluvchi avtotransport xizmatlaridan foydalanish nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan "avtotransport xizmatlari sohasida kichik biznesni rivojlantirish" tushunchasi yuzasidan yangi nazariy bilimlarni shakllantirish imkoni yaratilgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi avtomobil transporti sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik orqali avtotransport xizmatlari ko'rsatishni outsorsingga o'tkazish bosqichlarini samarali amalga oshirilishini ta'minlashda logistik outsorsing markazi tuzilmasini tashkil etish bo'yicha berilgan taklifi O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi amaliyotiga joriy etilgan (boshqarmaning 2024-yil 10-sentabrdagi 01/10-212-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning joriy etish natijasida transport xizmati ko'rsatuvchi korxonaning yo'lovchi tashish hajmi va boshqa transport xizmatlari ko'rsatish 12 foizga oshirish imkoniyati yaratilgan;

mintaqada kichik biznes sub'yektlari tomonidan ko'rsatilayotgan transport xizmatlari hajmiga iqtisodiyot tarmoqlari ta'sirini baholashda transport sohasidagi kichik korxonaning harakatlanuvchi tarkibi (yengil va o'rta yuk avtomobillari, mikroavtobuslar va h.k.) va kerakli uskuna hamda jihozlarni (ta'mirlash va diagnostikalash qurilmalari, yoqilg'i-moylash uskunalari kabi) sotib olish jarayonlarini optimallashtirish bo'yicha berilgan taklifi O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi amaliyotiga joriy etilgan (boshqarmaning 2024-yil 10-sentabrdagi 01/10-212-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning joriy etish natijasida avtotransport sanoati korxonalarini faoliyatida ushbu modellarni joriy qilish bo'yicha chora-tadbirlar transport xizmati ko'rsatuvchi korxonalari foydasini 11 foizgacha oshirish imkoni yaratilgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi avtomobil transporti sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini iqtisodiy-matematik modelashtirish asosida 2028 yilga qadar kichik korxonalar tomonidan ko'rsatiladigan avtotransport xizmatlari hajmining prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasida tomonidan joriy etilgan (2024-yil 10-sentabrdagi 01/10-212-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida "Qoraqalpog'iston Respublikasi Savdo sanoat palatasi" ni samarali boshqarish rejalarini ishlab chiqilgan va avtotransport korxonalari faoliyatini optimallashtirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy ilmiy va amaliy natijalari 14 ta, jumladan 5 ta xalqaro va 9 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta, shundan nufuzli xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 149 betdan iborat.